

HISSIYOTNING SHAXSGA TA'SIRI

Jangabayeva Ozoda Zinatdinovna

Pedagogika psixologiya kafedrası amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Dauletova Go'zal Muratbayevna

Pedagogika psixologiya kafedrası amaliy psixologiya yo'nalishi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14452009>

Annotatsiya. Inson munosabatlari uning ongida his-tuyg'ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyotni yuzaga keltiradi. Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda ishlatiladi. Ilmiy manbalarda esa bu holat sezgilar, anglanmagan xohishlar, talablar, maqsadlar kabi atamalardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: hissiyot, reaksiya, kechinma, emotsiya, kechinma, ehtiyoj, g'azab, kayfiyat, refleks, his-tuyg'u.

THE IMPACT OF EMOTIONS ON THE INDIVIDUAL

Abstract. The reflection of human relationships in his consciousness in the form of feelings, emotional states, high internal experiences creates emotions. The concept of emotion is used in everyday life. In scientific sources, this state is described by such terms as sensations, unconscious desires, demands, goals.

Keywords: emotion, reaction, experience, emotion, experience, need, anger, mood, reflex, feeling.

ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИЙ НА ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. Человеческие взаимоотношения отражаются в его сознании в виде чувств, эмоциональных состояний, высоких внутренних переживаний. Понятие эмоции используется в повседневной жизни. В научных источниках это состояние используется в таких терминах, как интуиция, нереализованные желания, требования, цели.

Ключевые слова: чувство, реакция, переживание, эмоция, переживание, потребность, гнев, настроение, рефлекс, эмоция.

Kirish

Odam tashqi muhildagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odanning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan ob'ektlarga subyekt sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko'Tayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida hissiyot deb - tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat.

Professor E.G'oziev muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot- odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob'ektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladigan. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalami aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z- o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. [1]

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi va mahsuli bo'lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga asosiy sabab tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlardir. O'zgarishlar birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashishi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyojning paydo bo'lishi yoki yo'qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. Shartsiz va shartli reflekslar his-tuyg'ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarimshari po'stlog'ida yuzaga keladi, mustahkamlanadi.

Murakkab shartsiz reflekslar: 1) yarim sharlarning po'stloqosti bo'shliqlari; 2) miya stvolining ko'rish do'ngliklari 3) nerv qo'zgalishlarini miyaning yuqori bo'limlaridan vegetativ tizimiga o'tkazib beruvchi markazlari orqali amalga oshiriladi. Shaxsda his-tuyg'larning kechishi hamisha miya po'stlog'i bilan po'stloqosti markazlarining birgalikdagi faoliyati natijasida ro'yobga chiqadi. [2]

J.Reykovski hissiyotni tartibga solish akti sifatida belgilaydi va o'zini o'zi ajratadigan subyektiv ruhiy hodisa sifatida tushuntiradi. His-tuyg'ularning subyektiv tomoni, uning nuqtai nazariga ko'ra, faqat introspektiv tarzda ochib berilishi mumkin. Shuning uchun, J. Reykovski nazarda tutadiki, hissiy jarayonlarni fakt sifatida emas, balki nazariy tuzilish sifatida kuzatish imkoniyati mavjud. A.N. Leontyev buni hissiyot jarayonlari ichki tartibga solish jarayonlarining keng sinfini o'z ichiga oladigan faoliyati va ularga muvofiq faoliyatni tartibga sola olishi bashorat qiladigan holatlar ekanligini yozadi. Uning fikricha, tajriba faqat his-tuyg'u bilan yuzaga keladi, lekin uning yagona mazmuni emas. Oddiy hissiy jarayonlar organik, motorli va sekretor o'zgarishlar bilan ifodalangan (tug'ma reaksiyalar).[3]

Xulosa

Hissiyotlar insonning ruhiy holatini va qaror qabul qilish jarayonlarini bevosita ta'sir etadi.

Ular bizning ijtimoiy munosabatlarimiz, stressga nisbatan chidamliligimiz va umumiy farovonligimizni shakllantiradi. Salbiy hissiyotlar, masalan, xavotir va g'azab, shaxsning psixologik holatiga zarar yetkazishi mumkin, bu esa uning qarorlarida va xatti-harakatlarida noaniqlik keltirishi mumkin. Aksincha, ijobiy hissiyotlar, masalan, baxt va xursandchilik, motivatsiyani oshiradi va hayotga bo'lgan yondashuvni yaxshilaydi. Shuning uchun, hissiyotlarni to'g'ri boshqarish va ulardan samarali foydalanish shaxsiy o'sish va muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Go'zal D., Gulsevar J. OILADA O'SMIRLAR TARBIYASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 19. – С. 41-44.
2. Dauletova G. M. MOSLASHISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SIFATLARI //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 37-40.
3. Go'zal D. O'SMIRLAR ORGANIZMIDA RO'Y BERADIGAN O'ZGARISHLAR //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 50-55.
4. Muratbayevna, Dauletova Gozal, and Madaminova Nargiza Qurbanbayevna. "BOLANING RIVOJLANISH DAVRI PSIXOLOGIYASI." *Scientific Impulse* 1.1 (2022): 33-35.
5. Dauletova, G. M. "Personality development in adolescence." *Science and Education in Karakalpakstan* 114 (2023).
6. Даулетова, Г. (2023). ЎСМИРЛИК ЁШИДА ШАХСНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, 1(1), 102–105. извлечено от <https://science.uzdjtsunf.uz/index.php/science/article/view/194>
7. Dauletova, G. M. "O'SMIRLIK YOSHDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR." *ХАБАРИШЫСЫ* 3 (2022): 81.